

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AXMEDOVA AZIZA XUSEN QIZI**

**XXI ASR NEOLOGIZMLARINING ZAMONAVIY RUS TILIDA  
DERIVATSION SALOHİYATI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Axmedova Aziza Xusen qizi**

XXI asr neologizmlarining zamonaviy rus tilida derivatsion salohiyati ..... 3

**Ахмедова Азиза Хусен кизи**

Деривационный потенциал неологизмов XXI века в современном русском языке ..... 25

**Akhmedova Aziza Khusen kizi**

The derivational potential of neologisms of the XXI century in modern Russian language..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**AXMEDOVA AZIZA XUSEN QIZI**

**XXI ASR NEOLOGIZMLARINING ZAMONAVIY RUS TILIDA  
DERIVATSION SALOHİYATI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil2693 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchi.uz hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umurova Go'zal Xotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shamaxmudova Aziza Furkatovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Xasanov Eldar Rinatovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "6" mart soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18 ; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (01804 raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil "18" fevral dagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**U.D.Qarshiboyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

*S. S.*

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Globallashuv jarayoni, shubhasiz, jahon hamjamiyatida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarga ta‘sir qiladi, bu, o‘z navbatida, nafaqat tilning lingvistik tizimida sifat o‘zgarishlariga, balki nutqda ham turli xil diskursiv o‘zgarishlarga olib keladi. Shu munosabat bilan hozirgi tilshunoslikda til tarkibidagi o‘zgarishlarni lingvistik va ekstralingvistik omillar orqali o‘rganish jarayoni ustunlik qiladi. Tilni zamonaviy kognitiv o‘rganishning dolzarb jihatlaridan biri rus tilidagi neologizmlarning derivativ jarayonini tadqiq qilish e‘tirof etilishi kerak. Jahon tilshunoslarining ushbu muammoga qiziqishi zamonaviy tilda o‘zlashtirilgan neologizmlarning muhim roli va ularda so‘z yasash salohiyatining yuqoriligi bilan bog‘liq.

Yangi ijtimoiy oqimlar, texnik qurilmalar, iqtisodiy tushunchalarning paydo bo‘lishi natijasida neologizmlar paydo bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida tilning leksik tizimida lug‘at tarkibni yangi leksik birliklar bilan to‘ldirishda amalga oshiriladigan o‘zgarishlarga olib keladi. Bunday neologizmlar har bir tilning juda qimmatli elementi bo‘lib, xalqaro maydonda, xususan, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya, Xitoy, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda ushbu mavzuni o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rus tilidagi neologizmlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi, bu rus tili tarkibining neofrazalar bilan to‘ldirilish jarayoniga oid turli talqinlarining faol paydo bo‘layotganini ham ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishi tillardagi, xususan, millatlararo muloqot tili sifatida rus tilidagi yangidan yasalgan so‘zlarni o‘rganish muhimligini ko‘p jihatdan belgilab berdi. Hozirgi zamon tilshunosligida so‘z yasash tizimining so‘z yasash juftlari, zanjirlar, uyalar va turlar kabi barcha tarkibiy komponentlarining talqinlarini taqdim etuvchi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi. Mavjud so‘z yasash uyalarining yangi so‘zlar bilan to‘ldirilish jarayonini o‘rganish, o‘zlashtirilgan neologizmlar doirasida yangi so‘z yasash hosilalarining tuzilishini tavsiflash hozirgi zamon tilshunosligida ustuvor yo‘nalishga aylanib bormoqda. Rus tilining rivojlanish tendentsiyalarini tavsiflash murakkab va noaniq jarayondir, chunki u ijtimoiy-madaniy muhitdagi dolzarb kommunikativ muammolarni belgilaydi. Lingvistik portret har bir shaxs madaniyati va ta‘limining hozirgi darajasini, uning afzal ko‘rishlari va qadriyatli sifatlarini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yagona to‘g‘ri yo‘li – ta‘lim sifatini oshirish”, deb ta‘kidlagan edi. Bu, shubhasiz, bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Zero, buning zamirida O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi turadi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta‘lim – “Yangi O‘zbekistondagi eng muhim sarmoya” degan bayonoti strategik ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrda Murojaatnomasi // [president.uz/oz/lists/view/5774](http://president.uz/oz/lists/view/5774)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Okkazonalizmlar, qisqartirilgan neologizmlar va neonominatsiyalarni diaxronik tadqiq qilish sohasidagi dolzarb tadqiqotlar P.L.Rua, P.Fikkert, D.Shaffer, D.Geylor, A.Laxiri, T.Mak Artur, R.Klappenbax, V.Stainitz, D.Xerberg va boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan<sup>2</sup>.

Turli davrlarda V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, G.N.Sklyarevskaya, E.A.Zemskaya, L.P.Krisin, A.A.Bragina, T.V.Popova, L.V.Ratsiburskaya, D.V.Gugunava, A.B.Kalinin, V.G.Kostomarov, V.V.Lopatin, D.N.Shmelev, va boshqalar tilshunoslikda neologiya masalalari bilan shug‘ullanganlar<sup>3</sup>. V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur turli vaqtlarda neologizmlar muammosini tadqiqot qilishgan. L.V.Ratsiburskaya, D.V.Gugunava, T.V.Popova zamonaviy rus tili neologiyasi va neografiyasining asosiy muammolarini o‘rganishdi. E.A.Zemskaya,

---

<sup>2</sup> Клаппенбах Р., Штайниц В. Словарь современного немецкого языка. 6 Том. – Берлин, 1964-1977. – 213 с.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Толковые словари русского языка// Избранные труды: Лексикология и лексикография. – М., 1977. – 218 с; Винокур Г.О. Форма слова и части речи в русском языке// Избранные работы по русскому языку / Г.О. Винокур. – М., 1959. – С. 397-418; Скляревская Г.Н. Слово в меняющемся мире: русский язык начала XXI столетия: состояние, проблемы, перспективы / Г.Н. Скляревская // Исследования по славянским языкам. – № 6. – Сеул, 2001. – С. 117-202; Земская Е.А. Активные процессы современного словопроизводства // Русский язык конца XX столетия. – М.: Наука, 1996. – 180 с; Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М., 1989. – 186 с; Брагина А.А. Неологизмы в русском языке. – М.: Просвещение, 1973. – 168 с; Попова Т.В. Неология и неография современного русского языка: учебное пособие. – 4-е изд., стер. / Т.В. Попова, Л.В. Рацибурская, Д.В. Гугунава. – Москва: Флинта, 2022. – 166 с; Калинин А.В. Лексика русского языка. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1971. – 225 с; Костомаров В. Г. Русский язык в иноязычном потоке / В. Г. Костомаров // Русский язык за рубежом. – 1995. – № 2. – С. 18-24; Лопатин В.В. Рождение слова. Неологизмы и окказиональные образования. – М.: Наука, 1973. – 180 с; Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение, 1977. – 340 с.

L.P.Krisin, A.A.Bragina ilmiy ishlarda neologizmlarning soʻz yasalihi, leksikologik, sotsiologik, normativ, stilistik jihatlarini yoritib berishgan. A.V.Kalinin asarlarida yangi soʻzni idrok etish bilan birga yangilik hissi neologizmni aniqlashning yagona mezon sifatida tan olingan. D.N.Shmelev rus tilidagi neologizmlarning tasnifini bergan. Bugungi kunda rus tilining neologiyasi va neografiyasi ularning gʻoyalari taʼsirida jadal rivojlanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida rus tilshunosligi masalalarini, soʻz yasalihini, neologizmlarning rivojlanishini S.A.Nasirova, R.R.Atayeva, A.G.Sheremetyeva, N.G.Rogozinnikova, R.A.Abdusamatova, O.M.Kim, A.M.Zaliznyak, E.A.Alieva, F.Sh.Faizova, L.Sh.Mullabaeva, X.K.Yunusova, S.S.Yusupova, kabi tadqiqotchilar tahlil qilishgan<sup>4</sup>.

Mashhur tilshunos olimlardan tashqari neologizmlarning hosilaviy jarayonlari masalalari bilan mahalliy olimlardan F.X.Korayeva sonlarda soʻz yasalihi uyalarining xususiyatlarini<sup>5</sup>, G.A.Duysinova zamonaviy rus tilida neologizmlarni oʻrganish muammolarini<sup>6</sup>, N.A.Umaraliyeva ommaviy axborot vositalari matnlarida emotsional qoʻshimchalarning tasnifini oʻrganishgan<sup>7</sup>.

Rus tili nazariyasi boʻyicha koʻplab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, onlayn makonda rus neologizmlarining shakllanishi va rivojlanishi masalasi hali yetarlicha oʻrganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tillari va

---

<sup>4</sup> Насырова А.С. Функции иноязычных слов в текстах современной газеты // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Русская филология. 2016. № 3. – С. 54-61; Атаева Р.Р. Типология поливершинных словообразовательных гнезд современного русского языка // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал № 4 (23)/ 2018. – С. 41-49; Шереметьева А.Г. К определению словообразовательной основы слова в русском языке//Актуальные проблемы русского словообразования. –Ташкент, 2015. – С. 78-80; Rogozinnikova N.G. К вопросу о мотивированности производных диалектных анемонимов // Актуальные проблемы русского словообразования. – Москва, 2023. – С. 118-121; Абдусаматова Х. О. Фразеологическая вариантность как частная проблема вариантности в языкознании// Молодая филология Узбекистана. – Ташкент, 2021. – С. 64-66; Kim O.M. К изучению семантической структуры словообразовательного гнезда // Актуальные проблемы русского словообразования. Самарканд, 1987. – С. 76-78; Зализняк А.М. Структурно-семантический анализ словообразовательного гнезда бить: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1967. – 25 с; Алиева Э.А. Семантико-функциональные особенности обращений в орнаментальном художественно-прозаическом монологе // Вестник Томского государственного университета. Филология. 2022. № 75. – С. 5-26; Фаизова Ф.Ш. Словообразование как способ пополнения словарного состава русского языка// Материалы сборника Международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы русского словообразования”. - Ташкент, 2024. – С.224-230; Муллабаева Л. Ш. Значение различных типов научных изданий в формировании специалистов-филологов // Материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2021. – С.60-62; Юнусова Х. К вопросу изучения словообразовательных возможностей языка СМИ. Суффиксальное словообразование // Материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2021. – С. 125-127; Юсупова С.С. Семантико-структурные модели словообразования и префиксальных образований в русском и узбекском языках: когнитивный и типологический анализ // Материалы научно-практической конференции. – Бухара, 2024. – С. 53-56.

<sup>5</sup> Кораева Х.Ф. Об особенностях словообразовательных гнезд имён числительных // Материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2023. – С. 121-125.

<sup>6</sup> Дуйсинова Г.А. Неологизмы и проблемы их изучения в современном русском языке // Материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2023. – С. 21-27.

<sup>7</sup> Умаралиева Н.А. Классификация эмоциональных суффиксов в текстах СМИ // Материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2023. – С. 252-259.

adabiyoti sohasidagi “XXI asr boshida rus tili: leksika, so‘z yasalishi, grammatika, matn” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq.

**Tadqiqotning maqsadi** neoleksemalarning derivatsion salohiyatini va neologizmlarning shakllanish jarayonida foydalaniladigan ularning mahsuldor modellarini va ularning zamonaviy media matnlarida moslashish usullarini o‘rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

asosiy lingvistik tendentsiyalar va olamning lingvistik konseptuallashtirishini asoslash bilan bog‘liq faol derivativ jarayonlarni tavsiflash;

rus tili tarkibini to‘ldirish manbai sifatida zamonaviy onlayn matnlardagi neologizmlar va o‘zlashtirilgan, asl o‘zaklarga hamda affikslarga ega gibridd, derivativ modellarning tasnifini tahlil qilish;

xorijiy so‘zlar va o‘zak morfemalarning affiksoidlarga aylanishini veb-sayt materiallari asosida o‘rganish;

onlayn matnlarda neologizmlar qo‘llanishining semantik va stilistik o‘ziga xosligini, media diskursi nuqtai nazaridan so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi va okkazionalizmlarni tizimlashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida ommaviy axborot vositalari diskursi matnlarida qo‘llangan neologizmlar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** rus tilidagi ommaviy axborot vositalari matnlarida derivatsion modellar va neoderivativlarning semantik va stilistik bo‘yoqdorligi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tasvirlash, nazariy tadqiqot (tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish) usullari va empirik tadqiqot (kuzatish, umumlashtirish) usullaridan foydalanildi. Materialni tadqiq qilish tilning turli faktlarini izohlash imkonini beruvchi lingvistik-nazariy usuldan foydalangan holda epistemologik (tavsifiy) usul yordamida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

olamning lingvistik kontseptualizatsiyasi doirasidagi nafaqat nominatsiyalar xarakterini, balki ularni shakllantirishning derivativ usullari repertuarini ham sezilarli darajada o‘zgartirgan zamonaviy so‘z yasash tizimining hozirgi holati aniqlangan;

o‘zlashtirilgan va slavyan negizlariga, shuningdek, affikslarga ega hosila modellari rus tili tarkibini boyitish manbai sifatidagi ommaviy axborot vositalari materiallari asosida tahlil qilingan;

maxsus so‘z yasovchi elementlarga ega ingliz tilidan o‘zlashtirilgan neoleksemalarning moslashishi veb-manbalari materiallari vositasida ko‘rib chiqilgan;

kompozitsiya, aralash neonominatsiya va okkazionalizmlar media matnlarning semantik va stilistik ekspressivligi nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati ushbu tadqiqot natijalaridan rus tilidagi neologizmlarni o‘rganish uchun ajoyib manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan

maxsus lug‘at-ma‘lumotnomalarni yaratishda foydalanish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy rus tilining neologizatsiya jarayonlarini o‘rganishga va bunday tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish mediya diskursi asosida gibridd neologizmlar va o‘zlashtirilgan neoleksemalarning paydo bo‘lishini yanada tushunishga yordam beradi.

Dissertatsiya materiallari ma‘lum darajada tarmoq materiallari, ularning stilistik va semantik bo‘yoqdorligi kesimida rus tili derivativ modellarining taraqqiyoti sohasidagi tadqiqotlarga xizmat qilishi va til nazariyasi va amaliy tilshunoslik bo‘yicha ilmiy, amaliy va nazariy manbalarga kiritilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg‘unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, asosiy tadqiqot natijalarining Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma‘ruzalar qilinganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati rus tilida mahsuldor neomorfemalarini aniqlash uchun neologizmlar yasashining derivativ modellarining nazariy asoslarini ommaviy axborot vositalari diskursi nuqtai nazaridan o‘rganish bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy rus tilining neologizatsiya jarayonlarini o‘rganishga yordam berishi va bunday tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish neonominatsiyalarni o‘zlashtirilgan va tub slavyan negizlari va morfemalari vositasida keyingi o‘rganishga yordam berishi bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining ahamiyati neologizmlar, so‘z yasash, ommaviy axborot vositalari diskursi sohasida lingvistik yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, doktorantlar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida, shuningdek, tilshunoslik, leksikologiya, matnlarni filologik tahlil qilish fanlaridan ma‘ruza matnlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hozirgi davr neologizmlarining derivatsion jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida quyidagilar joriy etilgan:

nafaqat nominatsiyalar xarakterini, balki olamning lingvistik kontseptualizatsiyasi tufayli ularni shakllantirishning derivativ usullari repertuarini ham sezilarli darajada o‘zgartirgan zamonaviy so‘z yasash tizimlarini o‘rganish bo‘yicha tavsiyalardan 561624-EPR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP “Ozbekistonda oliy talim tizimi zharayonlarini modernizatsiyalash va halkarolashtirish” amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-maydagi

104/0-sonli malumotnomasi). Natijada rus tilida yangi soʻzlar yasalişining eng dolzarb usullari aniqlangan;

oʻzlashtirilgan va slavyan oʻzaklari hamda affikslariga ega boʻlgan derivatsion modellarni rus tili tarkibini boyitish manbai sifatidagi ommaviy axborot vositalari materiallari asosida tahlil qilish boʻyicha bildirilgan takliflardan 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR ASTON UNIVERSITY DeNEL “Yevropa tillarini oʻqitishni rivojlantirish: aralash magistratura dasturlarini ishlab chiqish orqali tillarni oʻqitishni modernizatsiya qilish” amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-maydagi 1075/02-sonli malumotnomasi). Natijada onlayn materiallar asosida oʻzlashtirilgan va slavyan negizlari hamda affikslariga ega boʻlgan derivativ modellar tadqiq etilgan;

maxsus soʻz yasovchi elementlari boʻlgan ingliz tilidan oʻzlashtirilgan neoleksemalarni moslashtirish shartlarining veb-manbalari materiallari vositasida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan I-204-4-5 “ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida virtual resourslar yaratish va oʻquv jarayoniga joriy etish” amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-maydagi 1076/02-sonli malumotnomasi). Natijada soʻzlarni oʻzlashtirishning tashqi va ichki omillari yoritib berilgan;

ommaviy axborot vositalari matnlarining semantik-stilistik ekspressivligi nuqtai nazaridan soʻz shakllanishi, aralash neonominatsiyalar va okkazonalizmni tadqiq etish boʻyicha bildirilgan takliflardan “Assalom, Samarqand!” va “Maʼrifat shuʼlasi” teleradio koʻrsatuvlarining fevral oyidagi ssenariylarini tuzishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-maydagi 01-07/131-sonli maʼlumotnomasi). Natijada neologizmlarning amaliy materiallari onlayn manbalar asosida tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 4 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 2 ta va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 8 ta maqola eʼlon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, ishning xulosasi, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning oʻrganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy, nazariy ahamiyati ochib berilgan, natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr

etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy rus tilida soʻz yasalishining nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar, ya'ni zamonaviy nutq vaziyatini o'rganish nuqtai nazaridan olamning lingvistik kontseptuallashtirishi, soʻz yasalishi nazariyasi sohasidagi turli tilshunoslik maktablarining yutuqlari, zamonaviy rus tilida neologik jarayonlarning leksik va soʻz yasalish sathlarida o'rganilganlik holati tahlil qilinadi.

Umumiy qoida bo'yicha, rus tilining o'rganilayotgan davrdagi holatini obyektiv baholash soʻzlarni o'zlashtirish yoki leksik innovatsiyalar kabi til o'zgarishlarini stilistik tizimni qayta qurish bilan bog'liq holda yuzaki tahlil qilish bilan cheklanmaydi. A.D.Shmelev to'g'ri ta'kidlaganidek, “zamonaviy rus tilining nutqidagi muhim o'zgarishlar tilga xos bo'lgan olamni kontseptuallashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq”<sup>8</sup>.

Shu tarzda, birinchi galdagi vazifa ruslarning voqelikni an'anaviy idrok etishi hozirgi vaqtda qanday o'zgarib borayotgani bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi kerak. Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda ijtimoiy-madaniy sohadagi global o'zgarishlar va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarning doimiy shakllanishi tufayli rus tili nafaqat til tizimining barcha sathlarida, balki nutqdan diskursning har xil turlarida foydalanishda ham doimiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Rus tili tarkibidagi jiddiy o'zgarishlar va ular rus tili taqdiriga qanchalik ta'sir qilishi mumkinligi haqida gapirganda, V.V.Kolesov ta'kidlaydiki, aqliy makon, asosan, chet til kognitiv mezonlarining tushunchalarimiz tizimiga cheksiz bostirib kirishi natijasida zamonaviy fikrlash jarayonini va umuman tilni to'ldirish va qurish orqali deformatsiyalangan. Biroq, bu masala ehtiyotkorlik va ma'lum bir asoslanganlik darajasi bilan ko'rib chiqilishi kerak<sup>9</sup>. Shubhasiz, voqelikning rus tilidagi kontseptuallashtirishi, birinchi navbatda, jamiyatlarning kognitiv fazilatlarini aks ettiruvchi fe'l tizimini amalga oshirish bilan tavsiflanadi. “Oshirilgan fe'llilik” tendensiyasi olam lingvistik manzarasining dinamik rivojlanishiga ta'sir qiladi<sup>10</sup>.

Misol uchun, “догонялово” okkazonalizmi “poyezdga yetib olish uchun turli transport vositalarida sayohat qilish yoki yo'lda avtomashinalarning favqulodda to'qnashuvi” degan ma'nolarni anglatishi mumkin. Masalan: *Не было бы поездки, догонялова или напряга людей в других городах, если бы кто-то мог решить данную проблему*<sup>11</sup>.

Fe'l tizimi sohasida olamni lingvistik kontseptuallashtirishning rus modellarini tadqiq etish rakursida, xarakterli omil – bu soʻzlovchining harakat predmetiga yoki oʻz harakatlariga nisbatan fe'l leksemalaridan haddan tashqari foydalanishidir, bu fe'l tuzulmalarning va soʻz ma'nolari maxsus semantik majmuasining obrazlilik ta'sirini yaratadi.

<sup>8</sup> Шмелев А.Д. Эволюция русской языковой картины мира в аспекте культуры речи // Вопросы культуры речи / Отв. ред. А.Д. Шмелев. – М., 2011. – С.82-94.

<sup>9</sup> Колесов В.В. Отражение русского менталитета в слове// Человек в зеркале наук: Труды методологического семинара «Человек»: Меж вуз. сб. Л., 2003. – С. 106-124.

<sup>10</sup> Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. – М., 2004. – 608 с.

<sup>11</sup> Самыличева Н.А. Окказиональные слова как средство экспрессивизации газетного текста (на материале СМИ): Дис. ... канд. филол. наук:10.02.01.– Нижний Новгород, 2011. – 301 с.

Olimlarning fikricha, hosila soʻzlar, oʻz hosilaviy imkoniyatlarini rivojlantirgan holda, doimiy dinamikada amalga oshadi. Bu jarayon, shubhasiz, rus tilining leksik tarkibini soʻz yasash aspekti darajasida oʻzgartiradi, yaʼni soʻz yasaydigan maʼnolarining oʻzgarishi va yangi soʻz yasash modellarining hosil boʻlishi sodir boʻladi.

Tilshunos I.S.Uluxanov<sup>12</sup> bunday munosabatlar faqat quyidagi 1) umumiy oʻzakka ega boʻlgan soʻzlar; 2) bir oʻzakli soʻzlarning maʼnolari bir xil boʻlishi kabi belgilarga ega boʻlgan soʻzlar oʻrtasida oʻrnatiladi, deb hisoblaydi. Muallifning taʼkidlashicha, motivlashgan soʻz 1) motivlashtiruvchi asos (синий); 2) leksik formatant (-е -, синеть) kabi ikki komponentdan iborat boʻladi. Shu bilan birga, I.S.Uluxanov soʻz yasovchi tarzida motivlashgan soʻzlarning maʼnosida yuqorida koʻrsatilgan komponentlar tarkibiga kirmaydigan muayyan semantik komponentlarning mavjudligini ham tan oladi.

Ushbu komponentlar hosila soʻzlarning semantika nuqtai nazaridan taraqqiy etishida asosiy omil boʻlgan hosila soʻzlarning idiomatikligini shakllantirish uchun asosdir. Hosila derivatning motivlanish darajasi hosila soʻz asl maʼnosining motivlanish darajasidan aniq farq qiladi.

Shunday qilib, semantik evolyutsiya jarayonida formal va semantik parametrlarning oʻzaro taʼsiri xususiyatlarini koʻrsatish uchun demotivatsiya jarayonidagi oraliq tarkibiy qismlarini tahlil qilishda maxsus yondashuvdan foydalanish zarur.

G.O.Vinokur soʻz yasashining pragmatik komponentini ajratib koʻrsatadi, soʻzlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanishning formal-semantik komponenti yangi soʻzlarning yaratilishida motivlanganlik darajasiga bogʻliq, deb hisoblaydi. Izolyatsiya yoki desemantizatsiya bu aloqaning buzilishi natijasida roʻy beradi.

Birinchi marta G.O.Vinokur va N.M.Shanskiylar<sup>13</sup> soʻz yasashida motivlashtiruvchi soʻzning rolini qayd etishgan. Masalan, G.O.Vinokur hosila soʻzlarni lingvistik tahlil qilish soʻzning birlamchi asosi semantikasini oʻrganishga olib kelishini taʼkidlagan.

I.S.Uluxanov, O.I.Blinov kabi olimlar ham soʻz yasashda motivlashtiruvchi soʻz semantikasini oʻrganishning muhimligini koʻrsatdilar. Ularning fikricha, hosila soʻzlar oʻzagida motivlashtiruvchi soʻz boʻlgan sintagmaga asoslanadi<sup>14</sup>.

Olim V.N.Nemchenko soʻz yasash fanining anʼanaviy maktabiga asoslanib, diaxroniya nuqtai nazaridan soʻz yasashning 6 ta asosiy usulini ajratadi, chunonchi: 1) fonetik-morfologik (affikssiz); 2) morfologik; 3) leksik-sintaktik; 4) morfologik-sintaktik; 5) fonetik; 6) semantik. Shuningdek, u yasama soʻzlarni sinxroniya nuqtai nazaridan tahlil qilishning 14 ta usulini belgilab bergan: ulardan 9 tasi sodda hosila soʻzlarni, 5 tasi murakkab leksik birliklarni yasash usulidir<sup>15</sup>.

<sup>12</sup> Улуханов И.С. Единицы словообразовательной системы русского языка и их лексическая реализация. – М.: РАН, Институт русского языка им. В.В. Виноградова, 1996. – 222 с.

<sup>13</sup> Шанский М.Н. Лексикология современного русского языка. – М.: ЛКИ, 2007. – 304 с.

<sup>14</sup> Улуханов И.С. Единицы словообразовательной системы русского языка и их лексическая реализация. – М.: РАН, Институт русского языка им. В.В. Виноградова, 1996. – 222 с.

<sup>15</sup> Немченко В.Н. О морфемном составе современного русского языка//Грамматические категории и единицы: Синтагматический аспект. – Владимир, 2007.– С. 208-212.

Zamonaviy rus tilidagi neologik jarayonlar ko‘plab lingvistik va nolingvistik omillarga bog‘liq. Nolingvistik omillar yoki biz ularni ekstralingvistik omillar deb ataganimizdek, XX-XXI asrlar chegarasida rus tilining lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarga shubhasiz ta’sir ko‘rsatdi. Bozor iqtisodiyoti, siyosiy munosabatlarning rivojlanishi va MDH va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi “temir parda” ning qulashi kabi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy omillar rus tilining so‘z yasash va leksikasining lingvistik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatgan katalizator bo‘ldi.

Buning yaqqol isbotini rus tilining leksik fondidagi yangilanishlarni aks ettirgan qator leksikografik nashrlarda ko‘rish mumkin. Jumladan, 2009-2014-yillarda chop etilgan uch jildlik “Yangi so‘z va ma’nolar” lug‘at-ma’lumotnomasida XX asr adabiyoti va ommaviy axborot vositalaridan olingan materiallar o‘rin olgan<sup>16</sup>.

XX-XXI asrlar chegarasidagi derivatsion jarayonlar haqidagi bilimlarning hozirgi holati ushbu muammolarni o‘rgangan olimlarning ulkan hissasini aniq ko‘rsatib turibdi. Rus tilida neologizmlarning shakllanishiga lingvistik va ekstralingvistik omillarning keng ta’siri aniqlandi. So‘z yasovchi neologizmlarni hosil qiluvchi so‘zlar, odatda, zamonaviy ijtimoiy munosabatlarni tavsiflovchi ijtimoiy-siyosiy voqelikni ifodalaydi. Jamiyat hayotidagi tub o‘zgarishlar va uni tushunish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi hozirgi davr nazorat qilib bo‘lmaydigan so‘z yasalishi va o‘zlashtirma so‘zlarning oqimi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Rus tilida so‘z yasash va leksik tizimning to‘ldirilish usullari”** deb nomlanadi. Unda neologizmlarni va ularning tasnifini o‘rganishga ba’zi yondashuvlar, o‘zlashtirma so‘z rus tilining so‘z yasash tizimini rivojlantirish yo‘llaridan biri sifatida, gibrid neonominatsiyalarni shakllantirishning derivativ modellari haqidagi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda yangidan yasalgan so‘zlarni tasniflash va ularning turli lingvistik omillar bilan aloqalarini tavsiflashning turli usullari va mezonlari mavjud. Olimlarning fikricha, yangi leksemalarning hosil bo‘lish jarayonini, xususan, semantik okkazonalizmlarni o‘rganishning istiqbolli yo‘nalishi turli yo‘nalishdagi matnlarda neologizmlarni aniqlash uchun funksional yondashuvdan foydalanish hisoblanadi<sup>17</sup>.

G.N.Sklyarevskayaning ta’kidlashicha<sup>18</sup>, rus tilida hali yetarlicha o‘rganilmagan va so‘nggi o‘n yilliklarning lug‘at manbalariga kiritilmagan ko‘plab neoleksemalar mavjud. Tematik yangi so‘zlarning paydo bo‘lish tendensiyasi, albatta, jamiyatning turli sohalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Masalan: moliya va iqtisod (*бизнес-центр, брокер, ваучер, инвалюта*); siyosat, davlat tuzilishi, mafkura (*антиноменклатура, антиправо, антиправовая, конформизм, фундаментализм*); armiya, xavfsizlik kuchlari (*омоновцы, отказники, силовики*); din, e’tiqod (*экуменизм, ламаизм, махаяна*,

<sup>16</sup> Буцева Т.Н. Новые слова и значения. Словарь-справочник по материалам прессы и литературы 90-х годов XX века: в 3-х томах. – Санкт-Петербург, 2014. – 816 с.

<sup>17</sup> Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка.–Москва: Высшая школа, 1989. –154 с.

<sup>18</sup> Скляревская Г.Н. Введение // Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. – СПб.: Фолио-Пресс, 1998. – 704 с.

чакры va boshqalar); tibbiy xizmatlar (*антистресс, мануальная терапия, СПИД, хоспис*); jismoniy mashqlar, o'yinlar (*бодибилдинг, боулинг*); oziq-ovqat va ichimliklar (*фуагра, крекеры и баночный коктейль*); uy-ro'zg'or buyumlari, bezaklar, o'yinchoqlar (*типсы, биотуалет, трансформер*); yoshlar an'analari (*турсинг и турсинг тела*); paranormal hodisalar sohasi (*телекинез va экстрасенсы*); matolar (*крэг, лайкра, нубук, органза, стреч, эластан*); kosmetika, shu jumladan (*гель, скраб va кондиционер*); yoshlar uchun zamonaviy musiqa, shu jumladan (*диско, мейнстрим, рейв, рок*); kiyim-kechak, shu jumladan (*боди, бюстье, капри, карго, косуха, парка, пуховик, свингер, слаксы, топ, топлесс, шазюбль va boshqa uslubdagi kiyimning boshqa fasonlari va boshqalar*)<sup>19</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida neologizmlarning turli tasniflari mavjud bo'lib, bu tasniflar neologizmlarni aniqlash va baholash mezonlariga asoslanadi. Ko'pgina tilshunoslar derivatsiya jarayoni muammolari bilan dolzarb leksik hodisalardan biri sifatida shug'ullangan va ko'plab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, yangi so'zlar lug'atlari nashr qilinishi buning isbotidir.

Xorijiy mualliflar neologizmlarning ko'plab tasniflarini ilgari surishgan, ular orasida R.Klappenbax va V.Steynits taklif qilgan klassik tasnif mavjud bo'lib, ular faqat sof neologizmlarni, yangi so'zlarni va yangi ma'nolarni ajratib ko'rsatishadi. Olim D.Gerberg yangi leksemalar va ularning transformatsiyasiga e'tibor qaratgan. Rus tilshunosi E.A.Zemskaya asosiy va qo'shimcha mezonlarni aniqlash vositasida<sup>20</sup>, chet tili leksikasini ajratishning asosiy omillarini asos qilib olgan tipologik nazariyani ilgari surgan: 1) kompozitsiya usullari bo'yicha; 2) o'zlashtirish usullari bo'yicha; 3) assimilyatsiya darajasi bo'yicha; 4) derivatsiyasi bo'yicha; 5) leksik-semantik belgisi bo'yicha.

Uning ta'kidlashicha, xorijiy so'zlarni o'zlashtirib olish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- morfologik xususiyatlar (qisman yoki to'liq o'zlashtirish);
- semiotik xususiyatlar (formal yoki mazmunli o'zlashtirish);
- stilistik ma'no nozikliklari (foydalanish maqsadi);
- moslashib ketish (o'zlashtirilganlik darajasi)<sup>21</sup>.

Mualliflar asosiy leksik-semantik belgidan foydalangan holda barcha birliklarni leksik va semantik birliklarga ajratishadi. Leksik o'zlashmalar esa, o'z navbatida, morfologik belgi vositasida farqlanib, leksema va morfema o'zlashmalarga bo'linadi. Shunga asoslanib, neologizmlar 4 guruhga bo'linadi: 1) hosil bo'lish usuliga ko'ra; 2) paydo bo'lish usuliga ko'ra; 3) yaratilish sharoitiga ko'ra; va 4) yaratilish maqsadiga ko'ra<sup>22</sup>.

XXI asrning boshlarida sodir bo'lgan jadal o'zgarishlar davomida, ijtimoiy hodisalarning qayta qurulishi amalga oshgan paytda, rus tili tizimida tub o'zgarishlar

<sup>19</sup> Коханова Л.А. Трансформация языка современных СМИ под влиянием Интернета / Л.А. Коханова // СМИ и массовые коммуникации. – 2017. – № 2. – С.3-6.

<sup>20</sup> Земская Е.А. Активные процессы современного словопроизводства // Русский язык конца XX столетия. 2-е изд. - М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 90-141

<sup>21</sup> Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. 6-е изд. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 328 с.

<sup>22</sup> Падучева Е.В. Динамические модели в семантике лексики. – М., 2004. – 608 с.

yuz beradi. “Tillar muloqot aktlari orqali o‘zgaradi, chunki ular doimiy dinamikada bo‘lgan jamiyat haqiqatlarini aks ettiradi”<sup>23</sup>.

Shubhasiz, ijtimoiy hayotning turli sohalarida sodir bo‘lgan bu o‘zgarishlar chet tilidan so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtirgan. Ta’kidlash joizki, rus tilini keng ko‘lamli o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan to‘ldirish jarayoni XX asrning 80-yillari oxirida boshlangan. Bu jarayon o‘zining ko‘p qirrali darajasi va shaxslar mentaliteti o‘zgarishining o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turardi.

O‘zlashtirilgan leksikani o‘rganish sotsiolingvistik xususiyatga ega, chunki bu aholining turli ijtimoiy qatlamlari tomonidan yangi so‘zlar idrok etilishining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Amaliy material lug‘at tarkibining baynalmilallashuv tendentsiyasini va ingliz morfemalari bazasida zamonaviy neologizmlar yasaliş modellarining amalga oshayotganini aniq ko‘rsatib turibdi<sup>24</sup>.

Masalan, lug‘at manbalariga asoslanib, biz quyida ko‘rsatgan ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar rus tili tarkibiga faol kirib, onlayn va oflayn makonda yuqori mavqeiini saqlab qolishda davom etmoqda: *билборд, гамбургер, грант, аудит, веб-сервер, ксерокс, консенсус, маркетинг, модем, кэш, курсор, спонсор, фитнес, харизма, хит, хот-дог, спрей, монитор, менеджмент, имидж, ноу-хау, референдум, принтер, креативный, шоу, холдинг, дисплей, дилер, боди, голкипер, треш, тренд, рейтинг, хакер, клиринг, мультимедиа, папарацци, домен*<sup>25</sup>.

2000-yillardan keyin tashqi omillar ta’siri ostida ko‘plab ingliz tilidagi so‘zlar rus leksikasiga kirib boradi va u yerda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlaydi (*монитор, дисплей, компьютер, имидж, бартер, феминизация, хештег, гуглить*)<sup>26</sup>.

Zamonaviy o‘zlashtirma so‘zlarning navbatdagi xususiyati bitta manba tilidan, ya’ni Amerika ingliz tilidan o‘zlashtirish jarayonidir. Buning dalili sifatida deyarli butunlay ingliz tilidan o‘zlashtirilgan iqtisodiy va texnik atamalarning leksik tarkibi xizmat qiladi. Olimlarning fikriga ko‘ra, ingliz tili sharq tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning rus tiliga kirishi uchun vositachi til hamdir. Ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida alohida o‘rin egallaydi va shunday qilib rus tiliga xorijiy o‘zlashtirmalarning asosiy yetkazib beruvchisiga aylanadi<sup>27</sup>.

Zamonaviy o‘zlashtirma so‘zlarning moslashish xususiyatlarini tushunish uchun ingliz tilining rus tiliga yangi so‘zlarning “yetkazib beruvchisi” vazifasini bajarishini hisobga olish kerak. Ko‘rinib turibdiki, XXI asr boshlarida rus tilida sodir bo‘layotgan moslashish jarayonlarining xususiyatlari ko‘p jihatdan hozirgi vaqtda tilda hukmron bo‘lgan manba tilining mustahkamlanishiga bog‘liq, bu rus tilidagi xorijiy so‘zlar moslashuvining o‘ziga xos xususiyatini ham belgilaydi.

<sup>23</sup> Лысакова И.П. Революция в языке или язык революции? // Современная русская речь: состояние и функционирование. Вып. II.– СПб., 2006. – С. 119-130.

<sup>24</sup> Николина Н.А., Фролова Е.А., Литвинова М.М. Словообразование современного русского языка. – Москва: Флинта; Наука, 2005. – 126 с.

<sup>25</sup> Кормилицына М.А. Некоторые итоги исследования процессов, происходящих в языке современных газет // Проблемы речевой коммуникации. – Саратов, 2008. Вып. 8.– С. 13-34.

<sup>26</sup> Кудрявцева Л.А. Формирование и развитие языка массовой коммуникации в современном информационном обществе // Русский язык: исторические судьбы и современность: Труды и материалы. II Международный конгресс исследователей русского языка. – М., 2004. – 680 с.

<sup>27</sup> Кронгауз М. А. Слово под лупой // Отечественные записки. 2003.– № 4.–С. 443-451.

Hozirgi davr jahon hamjamiyati hayotidagi keskin o'zgarishlar va ijtimoiy fikrlash va dunyoqarash tamoyillarning tez o'zgarishi bilan tavsiflanadi, bu holat anglitsizmlarning slavyan tillariga kirib kelishiga ta'sir ko'rsatdi. Ingliz tilidan o'zlashtirilgan leksika va neoderivativilar global kontekstda etnik umumiylikka ta'sir ko'rsatgan madaniyat, ilmiy va texnologik tadqiqotlar sohasidagi zamonaviy yutuqlardan foydalanishni sezilarli darajada osonlashtirdi.

Nogahon insoniyat boshiga tushgan koronavirus yashin tezligida dunyoning barcha tillarida o'z aksini topdi. Albatta, rus tili ham bu jarayondan chetda qolmadi. *Локдаун, дистанционное обучение, удалёнка* so'zlari va so'z birkimallari bir zumda eng ko'p ishlatiladigan birliklarga aylandi. Tabiiyki, turli mamlakatlardagi akademik leksikografiya koronavirus neologikasining bu to's-to'polonlariga darhol munosabat bildirgan<sup>28</sup>.

Olimlarning fikricha, so'z yasallishining xalqarolashish jarayoni uchta mezonga asoslanadi:

- slavyan va ingliz o'zaklari bilan o'zaro munosabatda bo'lgan ingliz tilidagi affiksial morfemalardan foydalanish;

- o'zak morfemalar va o'zlashgan so'zlarni maxsus so'z yasovchi komponentlarga (affiksoidlarga) aylantirish;

- neologizmlar hosila asos bo'lib xizmat qiladigan, asli slavyan affikslari esa ularning tarkibiy qismlari bo'lgan so'z yasallish jarayonlaridan foydalanish<sup>29</sup>.

Globalashuv natijasida slavyan tillarida milliy va xalqaro so'z yasallish quyida tizimini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi.

Aynan shu kontekstda so'z yasallish komponentlari va hosila jarayonlarini tadqiq etish ommaviy axborot vositalarida yozilgan matnlar misollarida amalga oshirilishi kerak. Avvalo, ingliz tilida qo'llaniladigan morfemalar yordamida so'z yasallish kategoriyalarini o'rganish zarur. Masalan, *аномальщица, блогерша, бодибилдерша, интернетчица, компьютерщица, спонсорша, фейсбукшница, креативник, френдка, майданик, компьютерщик, оффшорник или оффшорщик, пиарщик*.

Olimlarning fikricha, zamonaviy ruscha so'z yaratishning o'ziga xos xususiyati ot kategoriyasiga oid prefiksatsiyaning o'sishidir<sup>30</sup>. Masalan, salbiy ma'noga ega bo'lgan «*анти-, де -, контр*» prefikslarning faolligi oshgan: *антиглобализм, антирынок, антирыночный, антинатовский, антиновация, антиреклама, антивирус, деполитизация, демодернизация, контртеррористический, контрреформа, контркультура, контрэлита*.

Tarixiy vaqtning har bir davri turli omillar ta'sirida neoderivativilarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan biz yangi so'z va ma'nolarning paydo bo'lishiga olib kelgan neologik jarayonlarning ommaviy intensivligi bilan tavsiflangan COVID-19 koronavirus pandemiyasi davridagi neologizatsiya

<sup>28</sup> Журавлева Е.А. Словотворчество в период пандемии COVID-19 // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2021. № 9 (162). – С. 136-143.

<sup>29</sup> Кузьмина Н.А., Абросимова Е.А. Активные процессы в русском языке и коммуникации новейшего времени: учеб. пособие. – М.: Флинта: Наука, 2015. – 256 с.

<sup>30</sup> Шарифуллин Б.Я. Общая характеристика речевой ситуации в российском городе начала XXI века // Экология языка и коммуникативная практика. 2014. № 1. – С. 67-85.

jarayonini namoyish qilmoqchimiz. Bu davrning soʻz yasaliş modelları til oʻyinlarining yorqinligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Koronavirus pandemiyasi deyarli barcha mamlakatlarda 2020-2021-yillarda karantin joriy etilgan davrda til ijodkorligining choʻqqisiga koʻtariladi. 2020-yil davomida va 2021-yil boshlarida til jarayonlari jadal surʼatlarda kechdi. Birinchi lingvistik tahlil “Koronavirus davrida rus tili” jamoaviy monografiyasida va “Yangi soʻzlar va yangi soʻzlarning lugʻatlari 2020” toʻplamida taqdim etilgan<sup>31</sup>.

Biz koʻrsatgan nashrlar pandemiya davrida rus tilining lugʻat tarkibi va leksik-semantik innovatsiyalarini tahlil qilish muammolari boʻyicha tadqiqotlarni oʻz ichiga oladi. Tahlil shuni koʻrsatdiki, koronavirus davrida dunyoda roʻy bergan dahshatli hodisalar tufayli til tizimida oʻzgarishlar yuz bergan.

Masalan, oʻzlashtirilgan oʻzak va asl cherkov slavyan affiksining kombinatsiyasi tufayli rus tilida hosilalarning butun guruhlari paydo boʻlgan. Lugʻat manbalari vositasida koronavirus leksikasi yangi nuqtai nazardan, yaʼni soʻz yasovchi vositalarning kelib chiqishi prizmasi orqali tahlil qilindi. Taqdim etilgan materialda cherkov slavyan affikslari (-*ств*-, -*ость* suffikslari, *пред*-, *со*-prefikslari) va affiksoidlar (-*бес*-, -*бесие*) mavjud boʻlgan baʼzi soʻzlarning formal va semantik xususiyatlari koʻrsatilgan, ular neoderivativlarga oʻxshash stilistik boʻyogʻi va ekspressivlikni aks ettiradi.

Hozirgi tadqiqot nuqtai nazaridan, genetik va stilistik ahamiyatga ega boʻlgan “slavyanizmlar”ga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqdir, chunki ular hosila soʻzlarning yasalişiga xizmat qilgan cherkov slavyan atamalariga asoslangan nutqdagi barcha hodisalar bilan bogʻliq.

Kuzatishlar uchun material sifatida nafaqat “Koronavirus davridagi rus tilining lugʻati”, balki turli xil internet manbalari, masalan, gazetalar, jurnallar, ijtimoiy tarmoqlar va internet forumlari xizmat qildi. Tadqiqotda ham keng qoʻllaniladigan, ham yagona misol bilan tasdiqlangan kam qoʻllaniladigan leksik birliklardan foydalanilgan.

Eng keng tarqalgan affiksoidlar: “- *бес*”, yaʼni “biron-bir fikrga mahliyo, butun vujudi bilan berilgan” maʼnosini, va “- *бесие*”, yaʼni “vasvasa, jazava” maʼnolarini bildiradi. Bu ikkala affiksoid ham cherkov slavyan tilidan olingan. Affiksoidlar yordamida yaratilgan neologizmlar neoslavyanizmlar turkumiga kiradi. Ushbu neologizmlar *перчаткобесие* kabi asl soʻzlarni ham, *вирусобесие*, *карантинобесие*, *вакцинобесие*, *маскобесие* kabi yangi soʻzlarni ham, shuningdek, *ковидобесие*, *коронабесие* kabi koronavirus davridan oʻzlashtirilgan soʻzlarni ham oʻz ichiga olishi mumkin<sup>32</sup>.

Neoslavyanizmlar lugʻatda “- *бесие*” affiksoidi bilan qayd etilmagan quyidagi soʻzlarni oʻz ichiga oladi: *омикронобесие* va *микробесие*, bu 2021-yil oxiri va 2022-yil boshida tarqalgan SARS-CoV-2 virusi yangi shtammining nomi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar: Bu psixoz mutaxassis tomonidan qoʻllab-

<sup>31</sup> Шарифуллин Б.Я. Общая характеристика речевой ситуации в российском городе начала XXI века // Экология языка и коммуникативная практика. 2014. № 1. – С. 67-85.

<sup>32</sup> СлКЭ – Словарь русского языка коронавирусной эпохи / Сост. Х. Вальтер, Е.С. Громенко, А.Ю. Кожевников, Н.В. Козловская, Н.А. Козулина, С.Д. Левина, В.М. Мокиенко, А.С. Павлова, М.Н. Приемышева, Ю.С. Ридецкая / Ред. коллегия Е.С. Громенко, А.С. Павлова, М.Н. Приемышева (отв. ред.), Ю.С. Ридецкая. СПб.: Институт лингвистических исследований РАН, 2021. – 550 с.

quvvatlanadi. *Ковидобесие* loyihasi besh yilga mo'ljallangan. Endi *Омикробесие*; yangiliklar saytidagi postga sharh: Bu yana bir bor *кваробесие* ning sog'liq haqida g'amxo'rlikka hech qanday aloqasi yo'qligini isbotlaydi; ijtimoiy tarmoqdagi xabar: Politsiya "*кваробесие*" xeshtegli QR-kodining talabini noqonuniy deb topdi.

Shunday qilib, XX asr oxiri XXI asr boshida rus tilidagi neologizmlar va hosila so'zlarni o'rganish rus tilining lingvistik tizimi butun dunyoda o'zgarganligini ko'rsatdi. Bu davrda til sohiblari hayotining barcha jabhalarida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu leksik tizimdagi lingvistik o'zgarishlarda o'z aksini topadi. Asl/o'zlashtirilgan affikslar va o'zlashtirilgan/asl o'zaklarga asoslangan derivativ modellar yordamida juda ko'p gibrid neonominatsiyalar paydo bo'lgan. Neoleksemalarning semantik potentsialidan faol foydalanish zamonaviy rus tilida derivatsiya jarayoni mahsuldorligining isboti bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiyaning "**Ijtimoiy tarmoq matnlari kesimida neonominatsiyalarning derivatsion salohiyatini tadqiq etish**" deb nomlangan uchinchi bobida onlayn matnlarda neologizmlar qo'llanishining semantik va stilistik o'ziga xosligi, onlayn matnlar kesimida so'zlarning o'zaro qo'shilishi va aralash so'z yasash holatlari, media diskursi nuqtai nazaridan so'z yaratish hodisasi sifatida okkazonalizmlarning hosil bo'lish yo'llari tahlil qilingan.

